mulohazalar. “Turon tarixi” Toshkent, 2003

5. Asqarov A. Oriylar muammosi: yangicha qarashlar va yondashuvlar.”O’zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda”. Toshkent – 2005

6. Asqarov A O’zbek xalqi O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiining ba`zi bir nazariy va ilmiy-metodologik masalalari. «O’zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix”. Toshkent-2004.

Qo’shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 488 b.

8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 48 b.

10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 104 b.

11. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

12. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O’zbekiston, 2012.

13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. –Toshkent: O’zbekiston, 2009.

14. Doniyorov A., Ashirov A., Bo‘riyev O. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. - Toshkent, Yangi nashr, 2011.

15. Maxmudov Q. Qadimgi Turkiston. –T., 2011.

16. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. –T., 2008.

17. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – T., 2007.

18. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера земли. - Л., 1990.

19. Основи этнологии: Учебное пособие / Под ред. проф. В.В. Пименова. — М.: Изд-во МГУ, 2007. - 696 с.

20. Садохин А.П., Грушевитская Т.Г. Этиология. Учебник для высших учебных заведений. – М., Асадема, 2000.

21. Широкогоров СМ. Этиографические исследования (избранные работы и материалы). - Владивосток, 2001.

22. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T., 2001.

Internet saytlari:

22. www.tdpu.uz

23. www.pedagog.uz

24. www.ziyonet.uz

25. www.edu.uz

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi
BD-5110600 – 3.14.3
2019- yil 28 06

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
_____ yil 04 ____

O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta’lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi: 5110600 - Tarix o‘qitish metodikasi

Toshkent – 201_

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 -yil "18" 08 dagi "4"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi royxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018-yil 25 08 dagi 348-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Z.A.Ilxomov — Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi tarix fanlari nomzodi, dotsent

R.A.Mulladjanova — Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

F. Shamukaramova - O'zRFA, Tarix instituti, tarix fanlari nomzodi

R.Tursunov - O'zMU, "Jahon tarixi" kafedrasi, tarix fanlari nomzodi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018- yil 28 08 dagi 11- sonli bayonnoma).

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1 O'zbek atamasi va uning kelib chiqish tarixi
2 Tojik xalqining kelib chiqishi va uning etnik ildizlari.
3 Choch va Iloq antik va ilk o'rta asrlarda etnogenetik jarayonlar.
4 "Sart" atamasi haqida: fandagi mavjud mulohazalar va ularning taxlili.
5 Sug'diyonada ilk o'rta asrlarda etnik jarayonlar.
6 O'zbek xalqining etnik tarkibi va etnografik qiyofasi.
7 Ko'chmanchi o'zbeklar davlati va uning etnik tarkibi.
8 O'zbek etnosining uzil-kesil shakllanishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar taxlili.
9 Mo'g'ullar xukmronligi davrida o'zbek etnik tarixining ba'zi bir masalalari.
10 Amir Temur va Temuriylar davrida etnik jarayonlar.
11 M.Z.Bobur va A.Navoiy asarlarida «turk» va «sart» atamalari talqin va taxlili.
12 O'zbek xalqi etnogenez iva etnik tarixini o'rganishda akademik K.Shoniyozovning xizmatlari.
13 O'zbek etnogenezining o'rganishda tilning roli.
14 Mustaqil O'zbekiston davlati - o'zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil.
15 O'rta Osiyo qadimgi xalqlari haqida Xitoy manbalari.
16 O'rta Osiyo qadimgi xalqlari haqida Gerodot ma'lumotlari.
17 O'zbekiston respublikasining tashkil topishi va uning o'zbek millatini shakllanishida tutgan o'rni va roli.
18 Antik va ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar va Movarounnahrda turko-sug'diy etnomadaniy maydonning tashkil topishi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Asqarov A. Mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 6, 1996.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiini o'rganishning ba`zi bir nazariy va ilmiy-metodologik asoslari. «O'zbekiston tarixi» jurnali № 4, Toshkent, 2002.
3. Asqarov A. O'zbekiston tarixi: eng qadimgi davrlardan eramizning V asrgacha. - T., 1994.
4. Asqarov A. O'zbekiston tarixi: davrlashtirish masalasi yuzasidan

10. O'zbek milliy mintaliteti va uning o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekiston davlati – O'zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil.

11. K. Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni " asarining taxlili

Seminar mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. O'rta Osiyo xalqlari tarixini yangicha davrlashtirish masalasi
2. O'rta Osiyoda rivojlangan O'rta asrlargacha yuz bergan tarixiy jarayonlar
3. O'rta Osiyo xalqlari etnogezi va etnik tarixining nazariy hamda ilmiy metodologik asoslari.
4. O'zbek xalqining kelib chiqishi xaqida ilmiy konsepsiyalar va qarqshlar
5. O'rta Osiyo qadimgi dunyosining mintaqaviy rivojlanishi va madaniy-xo'jalik markazlarining tashkil topishi.
6. O'rta Osiyoning qadimgi axolisi haqida Yunon mualliflari.
7. O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida Xitoy manbalari.
8. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlar mahalliy yozma manbalar. O'zbek milliy mintaliteti va uning o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekiston davlati – O'zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil.
9. Antik va ilk O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar va Movarounnaxrda Turk-So'g'diy etnomadaniy maydonning tarkib topishi. K. Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" asarining tahlili

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan o'zbek xalqining kelib chiqishi murakkab tarixiy jarayonlari bilan batafsil tanishtirish, o'zbek etnosi til jihatidan turkiy tillar oilasiga kirsada, uning etnik tarkibi asosini tub joyli o'troq eronzabon sug'diylar, xorazmiylar, boxtariylar va chorvador saklar tashkil etishini hamda u eronzabon aholi juda qadimq-qadimlardan shu zaminda turkiygoy qabilalar bilan yonma-yon yashab, uzoq davom etgan iqtisodiy, siyosiy, etno-madaniy va tarixiy aloqalar jarayonida o'ralashib, qorishib, yangi etnik birlik - o'zbek xalqi va millati tarkib topganligini, ulsming xususiyatlari, tizimi va turkumlanishi jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

"O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi" fani 3- kurslarda o'qitish maqsadga muvofiq. "O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi" fani tarix fanlarining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'z rivojida ijtimoiy gumanitar fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

II. O'quvfanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga o'zbek xalqining kelib chiqishi va uning xalq, millat bo'lib shakllanish tarixiy jarayonlari haqida ilmiy tasavvur hosil qilish, ularga bu masala bilan bog'lik konsepsiyalar va ularning asoslari haqida tushunchalar berish, O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixining nazariy va ilmiy-metodologik asoslari bilan tanishtirish, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi haqidagi tushunchalar, etnik alomatlar va etnik belgilar, o'zbek xalqi etnogenetik jarayonining murakkab kechishini sabablari, etnosning qabila, xalq va millat bosqichlari va ular o'rtasidagi tarixiy va xronologik tafovutlar va talablar haqidagi bilimlar bilan bog'liq tushunchalarni xosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar tarixiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. ***Talaba:***

- Markaziy Osiyo tarixida yuz bergan tarixiy jarayonlar, etnogenez va etnik tarixining nazariy va ilmiy metodologik asoslari, o'zbek xalqining kelib chiqish masalasida fanda mavjud ilmiy konsepsiyalar haqida ***bilimga;***
- Markaziy Osiyoning qadimgi davrdagi mintaqaviy rivojlanishi va madaniy xo'jalik markazlarining tashkil topishi, Markaziy Osiyoning qadimgi aholisining yozma manbalarda aks etish, o'zbek etnosining antropologik tipi va u tarkib topgan zamon va makon, Movarounnahrda turk-so'g'diy etnomadaniy maydonning tarkib topishi, o'zbek elatining shakllanish bosqichlari va uning xalq sifatida uzil-kesil tarkib topishi, o'zbek atamasining umummillat etnonimiga aylanishi, o'zbek millatini tashkil topishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy omillarning o'rni va roli, o'zbek milliy mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari ***haqida ko'nikmaga;***
- o'zbek millatining shakllanishi masalalarini o'rganishda tarixiy izchillik,

xolisona, obektivlik tamoyillari asosida muammoning ilmiy yondashish ***malakaga ega bo'lishi kerak.***

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi kursi va uning tarixshunosligi

1-mavzu: O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi" faniga kirish

Fanning mazmun va mohiyati, uning tarix fanida tutgan o'mi. Uning ob`ektlari - tarix va etnografiya, arxeologiya, antropologiya, numizmatika, toponimika, lingivistika. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalasi tarix fanining bosh masalasi ekanligi. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalasini tarix fanida qoyilishi va uni tarix fanida o'rganishlikning zaruriyati.

2-mavzu: O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixining nazariy va ilmiy-metodologik masalalari

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalalari tarix fanining bosh muammosi. Etnogenetik jarayon davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar xamda etnik belgilar. Ba`zida etnos tarixi uning nomidan qadimiy bo'lishi mumkinligi xaqida. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixining bosqichlari: qabila, xalq, millat va ularning bir-birlaridan farq qiluvchi belgilari. Etnos biologik xosila emas, balki ijtimoiy xosila ekanligi. Etnogenez, etnos va millat tarixi o'zoq davom etadigan tarixiy jarayon ekanligi va ularning boshlanish va yakuniy nuqtasi. Etnosning ko'p etnik komponenligi va u xaqda o'zbek xalqi etnik tarixining bilag'on olimi S.P.Tolstov qarashlari. Etnogenetik jarayonni o'rganishda masalaga kompleks yondashishning zarurligi.

3- mavzu: O'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida fanda mavjud ilmiy konsepsiyalar va qarashlar

O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi masalasini tushinishda XX asr boshlarida «panturkistik», «paneranistik» va «panislomizm» qarashlarning kelib chiqishi va ularning tub moxiyati. XX asrning 40-yillarida ularga zidli o'laroq «milliy avtoxtonizm» nazariyasini ishlab chiqilishi va uning ilmiy afzalliklari. A.D.Udalsov, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, L.V. Oshanin, A.N.Bernshtam va boshqalarning chiqishlari. O'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida o'zbek atamasiga urg'u berishlikning noilmiy xarakteri: Yuriy Bregel, Rahim Masov, G. Petrova, S.P. Polyakov, I. Rashidov va boshqalar.

15- mavzu: Mustaqil O'zbekiston davlati-o'zbek millatining uzil-kesil shakllanishida bosh omil

Ushbu mavzu yuzasidan maxsus ma`ruza bugungi kun talablaridan kelib chiqib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish rejalashtirilgan. Chunki mustaqillik davri tarixi, bu davrda kechgan tarixiy va etnomadaniy jarayonlar talabalar ko'z o'ngida sodir bo'lmoqda. Ular millat taqdiri, millat orzu-istaklari, xalq ezgu niyatlari bilan uyg`unlashib ketgan. Jamiyatda bo'layotgan har bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar millatning uzil-kesil shakllanishi uchun xizmat etmoqda. Mustaqil O'zbekiston davlati esa uning kafolati sifatida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tub o'zgarishlarga bosh –qosh bo'lib turibdi. Bu o'zgarishlarni yoshlarimiz, birinchi navbatda talabalar qanday taxlil etmoqdalar biz murabbiy ustozlarni qiziqtiradi.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'rta Osiyo xalqlari tarixini yangicha davrlashtirish masalasi
2. O'rta Osiyoda rivojlangan O'rta asrlargacha yuz bergan tarixiy jarayonlar
3. O'rta Osiyo xalqlari etnogezi va etnik tarixining nazariy xamda ilmiy metodologik asoslari.
4. O'zbek xalqining kelib chiqishi xaqida ilmiy konsepsiyalar va qarqshlar.
5. O'rta Osiyo qadimgi dunyosining mintaqaviy rivojlanishi va madaniy-xo'jalik markazlarining tashkil topishi.
6. O'rta Osiyoning qadimgi axolisi xaqida Yunon mualliflari.
7. O'rta Osiyoning qadimgi tarixi xaqida Xitoy manbalari.
8. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlar mahalliy yozma manbalar.
9. Antik va ilk O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar va Movarounnaxrda Turk-So'g'diy etnomadaniy maydonning tarkib topishi.

12- mavzu: O'zbekiston Respublikasining tashkil topish arafasida etnik holat va milliy hududiy chegaralanishning maqsad va mohiyati

Sovetlar tomonidan O'zbekiston Respublikasini tashkil etish arafasidagi Turkiston aholisining etnik tarkibi. Sartlar, Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari, kelib chiqish jihatidan urug'-aymoqchilik xususiyatlarini yo'qotmay, o'zoq o'tmishdan shu zaminda yashab kelayotgan turkiy elatlar.

Sart»larning kelib chiqishi haqidagi qarashlar. Mahmud Kashg'ariy, Bobur va A.Navoiy, Abul G'ozi Bahodirxon, G.Vamberi, V.Radlov V. Bartold, Y.Bregel, N.Ostroumov va boshqalar. Umum xalq tili sifatida turk tilining qarluq-chigil lahjasida so'zlashuvchi Farg'ona vodiysi o'troq aholisi tilini qabul qilinishi va uning turkiy tillar oilasida o'zbek tili sifatida nomlanishi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda yashovchi aholini taifalarga bo'lish, ularni sart, saxroyilar, turk, qipchoq va boshqa urug'-aymoq nomlari bilan atashning man etilishi.

13- mavzu: O'zbek millatining shakllanish jarayoni va o'zbek atamasining umummillat etnonimiga aylanishi

O'zbek so'ziga millat nomi sifatida etnik ma'no va mazmun kasb ettirish yo'lidagi umum davlat siyosati. Uning etno-adabiy jabhasi, etno-madaniy qirralari, respublika davlatining iqtisodiy-xo'jalik yutuqlari, siyosiy davlat mavqei, ommaviy-tashviqot davlat mashinasining mafkuraviy yo'nalishi va boshqalar. O'zbek diasperasi ongiga Sovet davlati tarkibidagi konstitusiyaviy mustaqil, amalda esa, unga yetish orzularini so'ndirish ruhini singdirish. Milliy davlat, ona-Vatan tushunchasiga sovet ruhini singdirish. Tarixan asrlar tajribasidan o'tgan, xalqning ibratli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirib, uning milliy an`anasiga aylangan udumlarini yo'q qilish. Dini va milliy-ahloqiy normalaridan o'zoqlashtirish. Xullas, sovetlar davrida millatni tarixiylik va milliylik asosida emas, balki lenincha «milliy» siyosat ruhida shakllantirish siyosatining ustuvorligi.

14- mavzu: O'zbek milliy mentaliteti va uning o'ziga xos ususiyatlari.

Mentalitet tushunchasi «jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma`noviy salohiyati, insoniy qadr-qimmati, ularning hayot qonunlarini taxlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy qiyofasi va kuvvati» ekanligi. Milliy mentalitetni o'ziga xos tarixiy, etno-madaniy va tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllanishi. Milliy o'ziga xoslikni uzoq tarixiy jarayonlarga munosabatda, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, o'z aro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida shakllanishi. Xalqimizning ruxiy-psixologik qarashlari, ibratli an`analari, urf-odatlari va marosimlarini shakllanishi. Milliy mentalitetni shakllanishida millatlarning aqliy intellektual imqoniyatlari va ruhiy-psixologik kayfiyatlarini aks etishi, o'ziga xos xarakterning tarixiy tajribalar asosida shakllanishi. O'zbek xalqi mentalitetining 4 ta yirik diniy - mafkuraviy bosqichni bosib o'tganligi va ularning millat fe`l-atvorida o'chmas iz qoldirganligi.

4- mavzu: O'rta Osiyo hududining qadimgi tub joyli aholisi va uning qadimgi yozma manbalarda aks etishi

O'rta Osiyoning tub joyli aholisi haqida Avesto ma`lumotlari. Gova Sug'uda, Baxti, Mauri, Xvarizam va boshqalar. Tur qabilalari. Ularning Avestoda ta`rifi. Axamoniy podsholarining qoyatosh lavhalarida O'rta Osiyo xalqlari. Bexistun, Naqshi Rustam va Persopol bitiklari. Axamoniy yozuvlarida saklar. Skilak va uning Xindga sayoxati. Xorazmiylar haqida Skilak xabarlari. «Katta Xorazm» masalasi. O'rta Osiyo xalqlari xaqida yunon-rim mualliflari. Gekatey va Geradot. Geradotning «Tarix» asari. Ktesiy va uning «Persida» asari. Ksenofont va uning «Kiropediya» asari. Arrian, Kursiy Ruf hikoyalari. Strabon «Geografiya»si. Bu asarlarda O'rta Osiyo xalqlari haqida xabarlar.

5- mavzu: Turkiygoy qabilalarning ilk vatani va oriylar muammosi

Avesto. Aryanam Veychax tur qabilalarining yurti. Turon turlar yurti. Avesto ma`lumotiga ko'ra, turlarning etno-geografik hududiy joylashishi: g'arbda Qora dengizning shimoliy-sharqiy sohillaridan sharqda to Amur daryosi va Kamchatka yarim oroligacha, shimolda O'rol tog' tizmalarigacha davom etgan qalin rus o'rmonlaridan janubda to O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlarigacha cho'zilgan geografik kenglik turkiygoy qabilalarning azaliy vatani ekanligi.

6- mavzu: O'zbek etnosining antropologik tipi va u dastlab tarkib topgan zamon va makon

O'rta Osiyo qadimgi aholisining tipi. «O'rta yer dengizi tipi». Antropologik atamasi-dolixokefaliY. O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy tomonlaridan bronza davridan e`tiboran kirib kelgan chorvador aholi tipi-«protoevropeoidlar tipi»-braxokefaliY. Antik davridan boshlab ushbu mintaqaga yana bir etnik guruhlarni kirib kelishi. Ularning tipi mo'g'ul bashara «janubiy Sibir tipi»dir. Xozirgi zamon o'zbeklarining jismoniy qiyofasiga xos «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi». Bu tip qachon va dastlab qaerlarda tashkil topdi? Bu jumboq fanda o'zoq yillar o'z yechimini topa olmaganligi. Bu tipning ilmiy yechimini uzoq yillar davomida juda boy paleoantropologik materiallar asosida antropolog T.Q. Xo'jaev topganligi. Ushbu mavzu bayonida o'zbeklarga xos «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi»ning paydo bo'lishi, uni dastlab qaerda, qachon tarkib topgani haqidagi ilmiy ma`lumotlar.

2-Modul. Antik va ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar

7- mavzu: Antik va ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda etnogenetik jarayonlar va Movarounnahrda turko-sug'diy etnomadaniy maydonning tarkib topishi

Iskandar Zulqarnaynning harbiy yurishlaridan keyin O'rta Osiyoda tub sosial-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning yuz berishi. Shimolda Kang' davlati, qadimgi Farg'onada Davan davlati, janubda Yunon-Baktriya davlati. Da-yuechjilarning janubga, hunnlarning katta guruhini g'arbga tomon ko'chishi

munosabati bilan mintaqada turkiy elementlarning qalinlashishi. Sirdaryoning kuyi havzasida «Jetiasar», o'rta havzasida qovunchi arxeologik madaniyatlarini tashkil topishi. Shu munosabat bilan mahalliy aholining moddiy va ma`noviy madaniyatida yuz bergan o'zgarishlar. Yangi etnik guruhlarning mahalliy aholi bilan oralashib ketishi natijasida Qang' davlati hududiy doirasida «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi»ning shakllanishi. Bu etno-madaniy jarayonlarning antik davr etnik holatidagi manzarasi. Antik davrning so'nggi damlarida turkiy etnik guruhlar Sug'd o'lkasiga, uning vahoga chegaradosh dashtlariga kirib borishi. Qizil-qir madaniyati.

8- mavzu: O'zbek elatining shakllanish bosqichlari va uning xalq sifatida uzil-kesil shakllanishi

O'zbek elatini shakllanishininrg o'ziga xos xususiyatlari, ya`ni ikki tilli etnoslar qorishuvi masalasi. Mahalliy tub sug'diy zabon aholi va mahalliy turg'un turkiygoy aholi. O'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi va uning bosqichlari. Xalq tarixining uning nomidan qadimiyligi masalasi. Elat feodalizm jamiyatining ijtimoiy mahsuli. Akademik K.Shoniyozovga ko'ra, o'zbek elati dastlab tarkib topgan hududlar va Qoraxoniylarning Movarounnahrga kirib kelishi. Somoniylar davlati o'rnida uchta turk davlatlarini tashkil topishi va siyosiy hokimiyatni turk sulolalari qo'liga o'tishi munosabati bilan mintaqada turkiy etnik qatlamning keskin qalinlashuvi. O'zbek elatining dastlab «turk» etnonimi bilan yuritilishi. O'zbek turklarining asosini qarluq-chigil turklari tashkil etganligi. G'arbiy Turk Hoqonligining tashkil topishi va Hoqonlik turklarining til va etno-madaniy taraqqiyot jihatidan boshqa turklardan farqi. Movarounnahrda yangi «etnik hudud»ning tashkil topishi va unda yashovchi turg'un aholi tarkibi. Siyosiy davlat uyushmasining tashkil topishi munosabati bilan o'zbek elatining xalq sifatida o'zil-kesil shakllanishi.

9- Mavzu: XIII-XV asrlarda etnik jarayonlar va o'zbek adabiy tilining shakllanishi

XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi. Qoraxitoy davlati harobalarida nayman davlatini barpo etilishi va ularning Yettisuvga xujumi. Norozi qang'lilarning Chingizxonga yaqinlashish siyosati. Mo'ng'ul istilolari va O'rta Osiyoda Chig'atay ulusining tashkil topishi. Movarounnahrga turko-mo'ng'ul urug'lari-barloslar, jaloyirlar, qavchin va orlat qabilalarining joylashtirilishi. Ularning kelib chiqishi haqidagi ilmiy munozaralar. Ushbu to'rt qabila ketidan O'rta Osiyoga olchin, dug'lat, mo'ng'ul, sulduz, oyrot, baxrin, markit, mang'it, qo'ng'irot urug'larining guruh-guruh bo'lib kirib kelishi. Ularning mahalliy turkiygoy aholi bilan qarishib ketishi va ular ta`sirida XV asrga kelib, mahalliy aholini chig'atoylar, ularning tilini esa «chig'atay tili» deb atalishi. Ana shu tilning aynan eski o'zbek tili, o'zbek adabiy tili ekanligi. Uning forsiy va arabiy tillar hisobiga boyib, umum turk tilidan ajrab chiqishi. Bu tilda qalam tebratgan buyuk ajdodlar - Bobur va Alisher Navoiy. «Sart»lar va ularning etnik nom emas, balki muqim aholining umumlashgan ijtimoiy nomi ekanligi. Aholining

aksariyatini esa turk elati, chig'atoylar deb atalishi.

10- mavzu: Dashti Qipchoq o'zbeklarining Movarounnahrga kirib kelishi va o'zbek xonliklari davrida siyosiy va etno-madaniy jarayonlar

XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoq qabilalarining O'rta Osiyoga kirib kelishi va Shayboniyxon hukmronligining o'rnatilishi. Shayboniyxon o'limidan keyingi siyosiy vaziyat va Buxoroda hokimiyat tepasiga Abdullaxon II ni kelishi. Uning qattiq-qo'llik siyosati. Ashtarxoniylarni hokimiyatga kelishi va o'z aro feodal beboshliklari tufayli O'rta Osiyoni uch xonlikka bo'linib ketishi. Siyosiy ahvolning aholi etnik tarkibiga ta`siri. O'zbek atamasi va uning kelib chiqishi haqidagi qarashlar. O'zbek urug'larining tarkibi: qiyot, mang'it (Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbek davlatining uyushtirishda mang'itlar katta rol oynaganlar), bayli, qo'ng'irot, tangut, do'rman, qo'shchi, nayman, tubay, toymas, ktoy, barak, uyg'ur, qarluq, kenegas, uyshun, kurlovut, imchi, tuman, ming va boshqalar. Movarounnaxrning tub aholisi, ularning xo'jaligi, kundalik turmush tarzi, madaniyati, tili va antropologik tipi. Shayboniy o'zbeklarining tili (turkiy tilning o'g'o'z va qipchoq laxjalari), mashg'uloti, turmush tarzi, madaniyat va antropologik qiyofasi. Ko'chmanchi o'zbeklarga qadar Movarounnahrda yashab kelayotgan turkiygoy qavm va elatlar: (tili turkiyning qarluq va chigil laxjasi) qarluq, chigil, argun, tuxsi, qang'li, turk, musabozori, kaltatoy, uyg'ur, og'o'z, qipchoq, jaloyir, barlos, orlot, qavchin, qang'li, az, o'z, turkesh, nushibi, dulu, kulon, merki, yag'molarning katta qismi mahalliy aholi bilan qarishib o'troq hayot kechirishga o'tib, o'rug'-aymoqchilik an`analarini unitilishi. Ularning badavlat qismini avvalgidek saxroyilik hayot tarzini davom ettirib, urug'-aymoqchilik an`analarini saqlab kelishi.

11- mavzu: O'rta Osiyo iqtisodiy hayotiga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi va milliy burjuaziya hamda jadidchilikning paydo bo'lishi.

O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanishi va uning ekonomikasiga rus kapitalining kirib kelishi. Savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan bog'lik banklarning tashkil topishi. Paxta tozalash va yog' zavodlarining qurilishi. Rus dehqonlarining Turkistonga ko'chirish siyosati. Temir yo'l transportining keltirilishi. Paxta navini yaxshilash yo'lidagi harakatlar va paxta maydonlarini kengaytirish siyosati. Asrlar osha davom etib kelayotgan natural xo'jalikning bo'zilishi va Turkiston iqtisodiyatida kapitalizm sari tub sosial-iqtisodiy o'zgarishlarning asta-sekin yuz berishi. Bu o'zgarishlarga mahalliy kapital egalarining tortilishi. Mahalliy boylar tomonidan turli yo'nalishdagi banklar va xom ashyoni qayta ishlash karxonalarini tashkil etilishi. Savdo-sotiq ishlari munosabati bilan mahalliy boylarning Moskva va Sank-Peterburg savdo banklariga kapital qoyish va Rossiya mollarini Turkistonga kiritishdan manfaat qo'rishga intilishining jonlanishi. Ana shu iqtisodiy savdo-sotiq jarayonlari bilan bog'lik holda Turkistonda milliy burjuaziyaning shakllanib borishi.